

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVİY TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY  
DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**«O'ZDAVYERLOYIHA» DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI**

**XAITOVA KAMOLA MIRKURBON QIZI**

**TOG‘ OLDI YAYLOV YERLARI HUDUDINI TASHKIL ETISH  
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**06.01.10-«Yer tuzish, kadastr va yer monitoring»**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on agricultural sciences**

**Xaitova Kamola Mirkurban qizi**

Tog‘ oldi yaylov yerlari hududini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish .....	3
---	---

**Хайтова Камола Миркурбон кизи**

Совершенствование механизма организации территории предгорных пастбищ .....	21
--	----

**Khaitova Kamola Mirkurban kyzı**

Improving the mechanism of organizing foothill pastures territory .....	41
---	----

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ .....	45
-----------------------------------	----

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVİY TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY  
DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**«O'ZDAVYERLOYIHA» DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI**

**XAITOVA KAMOLA MIRKURBON QIZI**

**TOG‘ OLDI YAYLOV YERLARI HUDUDINI TASHKIL ETISH  
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**06.01.10-«Yer tuzish, kadastr va yer monitoring»**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Qx867 raqam bilan ro'yxtatga olingan.

Dissertatsiya «O'zdavyerloyihha» davlat-ilmiy loyihalash institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.soil.uz](http://www.soil.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Parpiyev G'ofurjon Toxirovich**  
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Qurvantayev Raxmontoy**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor  
Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

**Babajanov Allabergan Ro'zimovich**  
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent  
«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari» Milliy tadqiqot universiteti

**Yetakchi tashkilot:**

**Qorako'chilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil «19 07 soyat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00; e-mail: [info@soil.uz](mailto:info@soil.uz)).

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (98 raqami bilan ro'yxtatga olingan). Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «07 » 02 kuni tarqatildi.

(2024-yil «07 » 02 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh. M. Bobomurodov  
Ilmiy darjali beruvchi bir martalik Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy kolibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

J.M. Ko'ziyev  
Ilmiy darjali beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy kolibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

N.Yu. Abduraxmonov  
Ilmiy darjali beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
b.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zaruriyati.** Bugungi kunda «dunyoda qishloq xo‘jaligi yerlari maydoni (2022-y.) 4,74 milliard gektarni egallaydi, shundan yaylov yerlari maydoni 3,18 milliard gektarni tashkil etadi. FAOning ma’lumotlariga ko‘ra, 2000-2020 yillar oralig‘ida yaylov yerlarining umumiyligi maydoni turli sabablarga ko‘ra 6 foizga (0,2 milliard gektar)ga kamaygan»<sup>1</sup>. Shu sababli yaylov yerlaridagi turli tabiiy-antropogen omillar ta’sirini oldini olish, yaylovlar mahsuldarligini tiklash va ulardan samarali va reja asosida foydalanish hamda yaylov yerlari hududini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning turli iqlim sharoitlarida tarqalgan yaylovlarning tabiiy-antropogen omillar ta’sirida o‘zgarishini aniqlash, ularni saqlash va ekologik barqarorligini tiklash hamda ulardan samarali va reja asosida foydalanishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, turli mintaqada joylashgan yaylov yerlaridan foydalanishda turlicha yondashuvlar va mexanizmlarni ishlab chiqish tog‘ oldi yaylov yerlarida alohida ilmiy yechimga ega bo‘lgan tadqiqotlar asosida yaylov yerlari ekologik holatini baholash va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, yer tuzish, yer monitoringi va yaylov yerlarida geobotanik tadqiqotlarni tashkil etish, ayniqsa agrar sohada qishloq xo‘jaligi yaylov yerlaridan samarali foydalanish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o‘zlashtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroixizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xom-ashyo bilan ta’minalash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish»<sup>2</sup> muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, yerdan foydalanuvchilar faoliyatiga ilmiy asosda yondashish orqali yaylov yerlarida hamda agrar soha barqarorligini va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-maydag‘i O‘RQ-538-soni «Yaylovlar to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-soni «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-dekabrdagi 496-soni «O‘zbekiston Respublikasida yer monitoringi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida»gi, 2018-yil 23-apreldagi 299-soni «Ma’muriy hududiy birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish» to‘g‘risidagi, 2018-yil 7-noyabrdagi 914-soni «Hayvonot va o‘simlik dunyosi ob’yektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish

<sup>1</sup> <https://www.fao.org/documents/card/en/c/cc2211en>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-soni «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

to‘g‘risida»gi, 2019-yil 24-sentyabrdagi 737-son «O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyoning turli mintaqalarida va mammalakatimizda qishloq xo‘jaligi yerlari, xususan, yaylov yerlaridan foydalanish asoslarini ishlab chiqish, yaylov yerlaridagi degradatsiya jarayonlari, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish hamda yaylov yerlaridan samarali foydalanishga qaratilgan ishlar J.D.Derner, D.J.Augustine, M.Fernández-Giménez, C.D.Morris, E.J.Raynor, L.Porensky, Y.Zhang, W.Li, mammalakatimiz olimlaridan S.A.Avezbayev, M.I.Ruzmetov, R.A.Turayev, Sh.K.Narbayev, G.T.Parpiyev, A.R.Rabbimov, A.K.Bazarov, B.K.Mardonov, M.M.Maxmudov, T.X.Mukimov, O.O‘.Davronov, G.M.Nabiyeva, N.Ch.Namozov, Q.Xaydarov, M.N.Norqulov kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Lekin, O‘zbekistonning tog‘ oldi yaylov yerbasi hududini tashkil etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar deyarli olib borilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti «O‘zdavyerloyihha» davlat ilmiy-loyihalash instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-son «Ma’muriy hududlar birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori doirasida (2019-2023-yy.) bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi yaylov yerbasi hududini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

Toshkent viloyati Ohangaron tumani yaylov yer fondining 1969-1988-2018-yillardagi o‘zgarishlar dinamikasini aniqlash, geobotanik holati, yaylov turlari, o‘simgiliklar hosildorligi va ozuqaviyigini o‘rganish hamda degradatsiya jarayonlarini asoslash;

Ohangaron tumani hududidagi yaylovlari ekologik holatini turli indikatorlar asosida baholash;

yaylovlar sig‘imi va undan samarali foydalanishni tashkil etishni ilmiy asoslash;

chorva mollarini turli usulda boqishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini ilmiy asoslash;

yaylov mintaqasi va pog‘onalari xususiyatlaridan kelib chiqib, intensiv foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi mavjud tog‘ oldi yaylov yerbasi xizmat qilgan.

**Tadqiqotning predmeti** yaylov yerlarning geobotanik holati, yaylovlar sig‘imini aniqlash, yaylovlarda chorva mollarini almashlab boqish sxemasi va grafigini ishlab chiqish orqali yaylov yerlaridan rejali va samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda to‘plangan ilmiy ishlarni qiyosiy taqqoslashda A.O.Ragimov, M.A.Mazirov, monografik tadqiqotlar olib borishda R.Campbell, E.Pentz, L.Borthwick, monitoring yuritishda I.P.Farman, yaylovlar ekologik holatini baholashda G.Brann, B.Brazee, M.Chaney hamda xaritalarni elektron raqamlashtirishda Y.T.Chiang, S.Leyk, C.A.Knoblock kabilarning usullaridan foydalanilgan, olingan ma’lumotlar B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubiy qo‘llanmasi bo‘yicha va Microsoft Excel dasturi yordamida matematik-statistik tahlil qilingan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Toshkent viloyati Ohangaron tumani yaylov yerlarida 2018-yilda 1969 va 1988-yillarga nisbatan degradatsiya jarayonlari kuchayganligi, o‘rtacha yaylov hosildorligi 46% ga kamayganligi va ozuqaviyili 20% ga pasayganligi, hosildorligi yuqori bo‘lgan 191-«Yirik o‘tli-efemerli-shuvoqli», 221-«Arpao‘tli-dukkakli» va 234-«Bo‘g‘doyiqli-bodomchali» yaylov turlarini tashkil etuvchi dominant o‘simliklarning yo‘qolib ketganligi asoslangan;

Ohangaron tumani hududidagi yaylovlar ekologik holatini baholash indikatorlari bo‘yicha 5 ballik tizimda 3 ballga mansubligi aniqlangan;

yaylov sig‘imini aniqlashda yaylovdan olinadigan mahsulotning birligi va chorvaning talabi bir xil birlikda bo‘lishi lozimligi taklif etilgan;

chorva mollarini ekstensiv usulda boqishga nisbatan intensiv usulda boqish 4 barobarga iqtisodiy samarali ekanligi isbotlangan;

Toshkent viloyati Ohangaron tumani hududidagi adir va tog‘ mintaqasining quyi va yuqori yaylov pog‘onalarining yaylov sig‘imidan kelib chiqib, mavsumiy almashlab boqish sxemasi va grafigi ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Toshkent viloyati Ohangaron tumanida chorvachilik yo‘nalishidagi 108 ta yaylov yerlaridan foydalanuvchilar uchun «Tog‘ oldi yaylovlaridan samarali foydalanishni tashkil etish» nomli ilmiy-uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqilgan;

Ohangaron tumanidagi 78 724,3 hektar yaylovlar uchun 1:25 000 masshtabli raqamli xaritalari tuzilgan;

Ohangaron tumanidagi tog‘ oldi yaylovlarida 14 ta daraxt va butalar, 3 ta yarimbutalar va 23 ta ko‘p yillik tabiiy o‘simliklarning monitoring reyestri tuzilgan;

Ohangaron tumanidagi 78 724,3 hektar yaylovlarining 1:25 000 masshtabli suv bilan ta’milanganligi raqamli xaritasi tuzilgan;

yaylovlar holatining monitoringini olib borish uchun «Pasture land monitoring system» (Yaylov yerlari monitoring tizimi) dasturiy ta’minoti yaratilgan;

tog‘ oldi yaylovlari adir mintaqasining 12 506,1 hektar quyi pog‘onasida 12 ta va 48 196,3 hektar yuqori pog‘onasida – 10 ta, shuningdek, baland tog‘ yaylov mintaqasining 6 730,0 hektar quyi pog‘onasida 9 ta va 11 291,9 hektar yuqori pog‘onasida 8 ta zagonli yaylov uchastkasi yer tuzish loyihalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining aniqligi dala-tajriba, laboratoriya, kameral, kartografik, solishtirma qiyosiy uslublarda bajarilganligi, ularni statistik tahlil qilinganligi, GAT texnologiyalaridan foydalanilganligi, raqamli xaritalarning tuzilganligi, olingan natijalarni ilmiy asoslanganligi, amaliyotda isbotlanganligi hamda oxirgi nashr etilgan uslubiy qo'llanmalar asosida bajarilganligi, monografik yondoshilganligi, respublika va xalqaro miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, nufuzli xorijiy va respublika ilmiy jurnallarida chop etilganligi hamda natijalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Toshkent viloyati Ohangaron tumani yaylov yerlarida so'nggi yarim asrlik davrda tabiiy va antropogen degradatsiya jarayonlari kuchayganligi, bunda o'rtacha yaylov hosildorligi va ozuqaviyligi darajasining pasayganligi, ayrim ozuqabop yaylov o'simlik turlarining kamayishi bilan bog'liqligi, yaylovdan olinadigan mahsulotning birligi va chorvaning talabi asosida yuritilishining asoslanganligi, yaylovlar ekologik holati indikatorlari bo'yicha 3 ballga baholanganligi, ana'anaviy usulga nisbatan intensiv usulda chorvani boqishda 4 barobarga iqtisodiy samaraga erishish mumkinligi isbotlanganligi, turli yaylov pog'onalari uchun mavsumiy almashlab boqish sxemasi va grafigi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tog' oldi yaylovlardan samarali foydalanishni tashkil etish, tabiiy yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlar va monitoring o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar, «Pasture land monitoring system» dasturiy ta'minoti, 1:25 000 masshtabli yaylovlarning suv bilan ta'minlanganlik raqamli xaritasi, shuningdek, yaylov almashlab boqish yer tuzish va loyihalash ishlari tog' oldi yaylov yerlari hududini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tog' oldi yaylov yerlari hududini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

«Tog' oldi yaylovlardan samarali foydalanishni tashkil etish» nomli ilmiy-uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 31-iyuldagagi 04/34-05/3753-son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyatning Ohangaron tumani yaylov yerlari fondi, geobotanik holati, degradatsiya jarayonlari, yaylov indikatorlari, yaylov o'simliklari ozuqa birligi ko'rsatkichlari tog' oldi yaylovlardan intensiv foydalanishda ilmiy-uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qilgan;

«O'zbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma»si ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 31-iyuldagagi 04/34-05/3753-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizning yaylov yerlarida geobotanik tadqiqotlar o'tkazish hamda ulardan samarali foydalanishda ilmiy-uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qilgan;

«Tabiiy yaylovlar o'simliklarining monitoringini yuritish ishlarini amalga oshirish bo'yicha qo'llanma» ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 31-iyuldagagi 04/34-05/3753-son ma'lumotnomasi). Natijada, respublikadagi tabiiy yaylovlar

o'simliklarining monitoringini yuritishda ilmiy-uslubiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan;

Toshkent viloyati Ohangaron tumani hududlari uchun 1:25 000 masshtabli «Yaylovlarning suv bilan ta'minlanganlik xaritasi» tuzilgan va amaliyatga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 31-iyuldaggi 04/34-05/3753-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur tuman hududidagi tabiiy yaylovlarning suv bilan ta'minlanganlik darajasi to'g'risida aniq ma'lumotlar olish imkonini bergen;

«Pasture land monitoring system» (Yaylov yerlari monitoring tizimi) dasturiy ta'minoti yaratilgan va amaliyatga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan guvohnoma: №DGU 16679. 06.06.2021). Natijada, mazkur portal orqali yaylov va yerdan foydalanuvchilar monitoringini yuritishda raqamlashtirishga erishilgan, Toshkent viloyati Ohangaron tumani yaylov yerlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va undan ochiq foydalanish imkonini bergen;

Toshkent viloyati Ohangaron tumani tog' oldi yaylovlari hududini tashkil etish uchun 1:25 000 masshtabli «Tog' oldi yaylovlardan intensiv foydalanish xaritasi» tuzilgan va amaliyatga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 31-iyuldaggi 04/34-05/3753-son ma'lumotnomasi). Natijada, yaylov almashlab boqish sxemasi va grafigini joyga ko'chirish imkonini bergen.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari har yili «O'zdavyerloyiha» davlat ilmiy loyihalash institutining Ilmiy-texnik kengashida ko'rib chiqilgan va ijobjiy baholangan, 5 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shundan, 2 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta tavsiyanoma, 1 ta dasturiy ta'minot, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalişlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natjalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyatga tadbiq etish ro'yxati keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Yaylovlar hududlarini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobi uch qismga bo'lingan bo'lib,

birinchi qismi **1.1-§.-«Yaylovlardan samarali foydalanish va hududini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari»** deb nomlangan bo‘lib, unda yaylov yerlaridan oqilona foydalanish va yaylov hududini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari keltirilgan hamda yaylov yerlaridan foydalanish va ular hududini tashkil etishga doir adabiyotlar tahlil qilingan.

Ikkinci qismi **1.2-§.-«Yaylovlardan foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribalar tahlili»** deb nomlanib, rivojlangan mamlakatlarda yaylov yer resurslaridan foydalanishga doir tajribalari, jumladan, yaylov yerlaridan oqilona foydalanish va yaylov yerkari hududini tashkil etish masalalari o‘rganilgan. Bunda, O‘zbekistonning tabiiy-iqlim sharoitiga mos va yaylov yerkari ulushi mamlakat umumiyligi fondining yarmidan ko‘p qismini egallagan yoki yaylov yerlaridan foydalanishda ilg‘or texnologiya va innovatsion usullardan foydalanadigan davlatlar - Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, AQSH, Avstraliya va Yevropa mamlakatlari tanlab olingan va o‘rganilgan.

Uchinchi qismi **1.3-§.-«O‘zbekiston Respublikasi yaylov fondi va undan foydalanish holati»** deb nomlanib, respublikamizda yaylov yerlar fondidan foydalanishni boshqarish va nazorat qilish, yer munosabatlarini takomillashtirish, Respublikamizda yaylov yerlardan foydalanish holati bo‘yicha ma’lumotlar natijalari tahlili asosli materiallar bilan ochib berilgan.


Dissertatsiyaning «**Toshkent viloyati Ohangaron tumani yaylovlarini va ularning geobotanik holati**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektiining tavsifi, yaylov yerlar maydoni bo‘yicha ma’lumot, tabiiy-iqlim sharoiti, geobotanik holati tahlili bo‘yicha ishlar keltirilgan.

Ushbu bobning **2.1-§.-«Toshkent viloyati Ohangaron tumani yaylovlarini to‘g‘risida umumiyligi ma’lumotlar»** deb nomlangan bo‘lib, unda Toshkent viloyati Ohangaron tumanida tarqalgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibiga kiruvchi tabiiy yaylovlarining umumiyligi maydoni, tumanning umumiyligi yer fondiga nisbatan ulushi hamda tabiiy-iqlim sharoiti o‘rganilgan.

Biz tomonidan Toshkent viloyati Ohangaron tumanining tabiiy iqlim ko‘rsatkichlaridagi 20 yillik o‘zgarishlari (2003-2022-yillar kesimida) to‘g‘risidagi tadqiqotlar olib borilgan. Bu yerda quyidagi eng asosiy iqlim ko‘rsatkichlari olingan:

- Yog‘ingarchilik miqdori, mm/yil;
- Maksimal havo harorati, °C;
- Minimal havo harorati, °C;
- Shamol tezligi, m/s;
- Tuproq yuzasi va ildiz qatlami namligi, %.

Olingen natijalarga ko‘ra, 20 yil davomida iqlim ko‘rsatkichlari keskin o‘zgarishlarga duch kelgan. Va bu, tumandagi tabiiy yaylovlarining holatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan, degan fikrga kelindi. Iqlim ko‘rsatkichlariga asosan, Ohangaron tumani tog‘oldi yaylov mintaqasi va pog‘onasida kuzatiladigan yillik yog‘ingarchilikning o‘rtacha miqdori 200-400 mm atrofida qayd qilinib, yer yuzasi namlik bilan ta’minlanishiga ko‘ra nisbatan kam guruhga mansub hudud deb baholanadi, ammo yaylov o‘t o‘simliklarining vegetatsiya davrida o‘sib rivojlanishi uchun nisbatan qulay hududlar sirasiga kiradi, degan hulosa qilindi.



1-rasm. Toshkent viloyati Ohangaron tumanining iqlim ko‘rsatkichlari (2003-2022-yillar kesimida)

Ikkinci bobning 2.2-§.-«*Toshkent viloyati Ohangaron tumani tog‘oldi yaylovlarning geobotanik holati*», deb nomlanib, unda tadqiqot obyektidagi yaylovlarning geobotanik holati uch davr kesimida, ya’ni 1969, 1988, 2018-yillarda o’tkazilgan geobotanik tadqiqotlar natijasi o‘rganilgan.

1-jadval

**Toshkent viloyati Ohangaron tumani tog‘ va tog‘oldi yaylovlarida o’tkazilgan geobotanik tadqiqotlar natijasi (1969, 1988, 2018-yillar kesimida)**

Tadqiqot o’tkazilgan yil	Yaylov va pichanzorlar maydoni, ga	Yaylov va pichanzorlarning												Chorva mollarini boqish maysumiyligi	
		shundan			guruhi			o’simliklar soni			ozuqabop o’simliklar				
		- degradatsiyaga uchrangan maydon, ga	- degradatsiyaga uchrangan maydon, % da	tipi	turi	jamii	shundan	hosildorligi, s/ga	ozuqa birligi, s/ga						
1969	157 500	84 725	-	6	19	34	109	85	8	5,3	2,5	86	16,8	Bahor, yoz, kuz	
1988	138 069	82 100	-	6	17	34	103	81	9	3,9	2,3	84	17,5	Bahor, yoz, kuz	
2018	153 300	78 724	18 115	21	6	12	27	79	66	13	3	2	75	22,7	Bahor, yoz, kuz

1-jadvalga ko‘ra, Ohangaron tumanidagi tabiiy yaylov hosildorligi yildan-yilga, ya’ni 1969-yilda 5,3 s/ga dan, 2018-yilga kelib 3,0 s/ga gacha kamayishi kuzatildi. Zararli, zaharli va chorva mollari yemaydigan o’simliklar soni 8-9 donadan 13 donagacha ko‘paygan va bu, ozuqabop o’simliklar sonini 81-85 donadan 66 donagacha kamayishiga olib kelgan. Yaylov tipi va turida ham keskin o‘zgarishlar amalga oshgan. Hususan, Ohangaron tumanida avvallari (1969-yillarda) qayd qilingan hosildorligi yuqori bo‘lgan 191, 221, 234-yaylov turlari yo‘qolib ketganligi aniqlandi. Ushbu holat yaylovlarda degradatsiya jarayonlari jadallahshganligidan dalolat beradi, degan fikrga kelindi.

Ushbu bobning **2.3-§.-«*Tadqiqot obyektining tog‘oldi yaylovlari hududlarining tahliliy tavsifi***»ga bag‘ishlangan bo‘lib, tumandagi yaylov yerlari foydalanuvchilari va yaylov yerlarining foydalanuvchi subyektlar orasida taqsimlanishi, chorva mollari soni va tarkibi, chorvachilik mahsulotlarining ishlab chiqarilishi hajmi hamda yaylov yerlari maydonining massivlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **«Tog‘oldi yaylov yerlari hududini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish»** deb nomlangan uchinchi bobida Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi tabiiy yaylovlarning ekologik holati baholangan, yaylovlardan sig‘imini aniqlash tartibi takomillashtirilgan, takomillashgan yaylov sig‘imini aniqlash formulasi asosida tumandagi yaylovlardan sig‘imi aniqlanib, yaylov almashlab boqish tizimi joriy etilgan hamda yaylov hududini tashkil etish mexanizmi takomillashtirish bo‘yicha ishlar keltirilgan.

Ushbu bobning **3.1-§.-«*Toshkent viloyati Ohangaron tumani tog‘oldi yaylov ekologik holatini baholash»*** deb nomlangan bo‘lib, tadqiqot obyektidagi yaylovlarning joriy ekologik barqarorligi holati 7 bosqichda 10 indikatorlar asosida baholandi.

Ohangaron tumanidagi yaylovlarning umumiyligi ekologik holati bo‘yicha ball hisobida 34 ballga teng, individual holatiga ko‘ra 3,4 ballga teng deb baholandi (2-jadvalga qarang). Demak, o‘rganilgan yaylovlarda yaylovdan foydalanishni boshqarishga o‘zgartirishlar kiritish yaylov mahsuldarligi oshishiga va atrof-muhitga foyda keltiradi degan hulosa qilindi.

2-jadval

#### **Ohangaron tumanidagi tabiiy yaylovlarning ekologik barqarorligi ko‘rsatkichi**

T/r	Indikatorlar nomi	Berilgan ballar	
		individual	umumiyligi
<b>1</b>	O‘tlatishga yaroqli o‘simliklar ulushi	5	45
<b>2</b>	O‘simliklar bilan qoplanganlik darajasi	3	28
<b>3</b>	O‘simlik qoldiqlari	3	34
<b>4</b>	O‘simliklar xilma-xilligi	4	40
<b>5</b>	O‘simlik potensiali	3	30
<b>6</b>	Chorva muttasil to‘planib turadigan hududlar	3	35
<b>7</b>	Foydalanishning xilma-xilligi	3	25
<b>8</b>	Eroziya jarayoni ta’siri	3	35
<b>9</b>	Dukkakli o‘simliklar ulushi	2	20
<b>10</b>	Tuproq zichligi	5	48
<b>Umumiyligi o‘rtacha ball</b>		<b>3,4</b>	<b>34</b>

Uchinchi bobning **3.2-§.-«*Toshkent viloyati Ohangaron tumani hududidagi yaylovlardan sig‘imi va undan samarali foydalanishni tashkil etish»***ga bag‘ishlangan bo‘lib, tumandagi tabiiy yaylovlarning joylashgan mintqa va pog‘onalari kesimidagi sig‘imi hamda mavsumiy foydalanish davomiyligi yaylovdan foydalanish normalarini belgilash tartibining takomillashgan usulida aniqlandi.

Tumanning tabiiy-iqlim sharoitini o‘rganish natijasida, tumandagi tabiiy yaylovlardan bahor, yoz va kuz mavsumlarining quyidagi davomiyligida foydalanish tavsiya etiladi. Tumandagi mavsumlar bo‘yicha o‘rtacha havo haroratini inobatga olgan holda, yaylovlarda erta bahor, kech kuz va qish mavsumida chorva boqilmaydi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, **adir mintaqasining quyi pog‘onasida** tarqalgan umumiyligi 8 ta yaylov tipida yilning boqish mavsumida umumiyligi 260 kun, **yuqori pog‘onasidagi** 20 ta yaylov tipida esa 189 kun chorva boqish tavsiya etiladi.

**Tog‘ mintaqasida** bahor mavsumida chorva boqilmaydi. Ushbu mintaqanining **quyi pog‘onasida** tarqalgan 6 ta yaylov tipida yillik umumiyligi 122 kun foydalaniladi, **yuqori pog‘onasida** esa faqatgina yoz mavsumida foydalanish mumkinligini inobatga olib, ushbu pog‘onadagi 11 ta yaylov tipidan foydalanish davomiyligi 76 tunni tashkil etadi (3-jadval).

3-jadval

### Tumandagi yaylovdan mavsumiy foydalanish davomiyligi

Tumanda tarqalgan yaylov mintaqalarini va pog‘onalarini	Bahor		Yoz		Kuz		Yil davomida umumiyligi, kun
	kun/oy	davoniyligi, kun	kun/oy	davoniyligi, kun	kun/oy	davoniyligi, kun	
Quyi adir	16.03.-31.05.	77	01.06.-31.08.	92	01.09.-30.11.	91	260
Yuqori adir	16.04.-31.05.	47	01.06.-31.08.	92	01.09.-20.10.	50	189
Quyi tog‘	-		01.06.-31.08.	92	01.09.-30.09.	30	122
Yuqori tog‘	-		16.06.-31.08.	76	-	-	76

Amaliyotda qo‘llanilayotgan uslubiy ko‘rsatmada (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 689-sonli qarori 19.08.2019-y.) ham hosildorlik, ham ozuqa birlik olingan. Bu yerda ushbu ko‘rsatkichlar huddi bir-birini to‘ldirgandek tuyuladi. Lekin, ushbu ko‘rsatkichlar bir-biridan keskin farq qiladi. Aynan shu jihatlarini inobatga olgan holda, biz tomonidan o‘rganilgan yaylovlarning mintaqalar bo‘yicha o‘tlatish davomiyligi hisoblandi va massivlar kesimida har bir yaylov turiga nisbatan yaylov sig‘imi aniqlandi. Bunda, quyidagi takomillashtirilgan formula tavsiya qilinadi:

$$N = \frac{(S \times F_u) \times (D_g) \times 85\%}{m \times n}$$

Bu yerda, **N** – yaylovda chorva mollarini o‘tlatish normasi, sh.b.; **S** – yaylov maydoni, ga; **F<sub>u</sub>** – ozuqa birligi, s/ga; **D<sub>g</sub>** – mavsumda foydalanish davomiyligi, %; **m** – bir shartli boshning kunlik ozuqa birligiga bo‘lgan talabi, s.o.b.; **n** – mavsumda chorva boqish davomiyligi, kun; **85%** – yaylov ozuqa zahirasini hisobga olish foizi, bunda 15% ob-havo sharoitlari yomonlashishi hamda yaylovning chorva tomonidan toptalishi ehtimoli sug‘urta jamg‘armasi sifatida qoldiriladi.

Masalan, o‘rganilgan tumanning Angren massivida joylashgan adir yaylov mintaqasining quyi pog‘onasida tarqalgan 574 ga maydonni egallagan 25-yaylov tipiga kiruvchi «165 - kovulli-qo‘ziquqli-rangli» yaylov turining bahor, yoz va kuz mavsumlari uchun yaylov sig‘imini aniqlandi. Bunda: maydoni (S) – 574 ga; ozuqa birligi (F<sub>u</sub>) – 2,3 s/ga (bahorda), 1,5 s/ga (yozda), 1,3 s/ga (kuzda); mavsumda foydalanish davomiyligi (D<sub>g</sub>) – 83,7% (bahorda), 100% (yozda), 100% (kuzda); mavsumda chorva boqish davomiyligi (n) (4-jadvalga asosan) – 77 kun (bahorda), 92 kun (yozda), 91 kun (kuzda).

**Yaylov sig‘imini aniqlashning amaldagi va taklif etilayotgan  
formula asosida aniqlashning qiyosiy jadvali**

Amaldagi formula bo‘yicha:	Taklif etilayotgan formula bo‘yicha:	Shartli bosh sig‘imi farqi, -/+
<b>Bahor mavsumida:</b>		
$\frac{(574 \times 3,8) \times (83,7\%) \times 85\%}{0,0102 \times 77} = 1975,8 \text{ sh.b.}$	$\frac{(574 \times 2,3) \times (83,7\%) \times 85\%}{0,0102 \times 77} = 1195,8 \text{ sh.b.}$	780,0
<b>Yoz mavsumida:</b>		
$\frac{(574 \times 3,4) \times (100\%) \times 85\%}{0,0102 \times 92} = 1767,7 \text{ sh.b.}$	$\frac{(574 \times 1,5) \times (100\%) \times 85\%}{0,0102 \times 92} = 779,9 \text{ sh.b.}$	987,8
<b>Kuz mavsumida:</b>		
$\frac{(574 \times 3,0) \times (100\%) \times 85\%}{0,0102 \times 91} = 1576,9 \text{ sh.b.}$	$\frac{(574 \times 1,3) \times (100\%) \times 85\%}{0,0102 \times 91} = 683,3 \text{ sh.b.}$	893,6

Hisob-kitoblarga ko‘ra, **amaldagi formula bo‘yicha:** 574 ga 165. Kovulli-qo‘ziquloqli-rangli yaylovda bahor mavsumida 1975,8 shartli boshni, yoz mavsumida 1767,7 shartli boshni va kuz mavsumida 1576,9 shartli boshni o‘tlatish mumkin.

**Taklif etilayotgan formula bo‘yicha:** 574 ga 165. Kovulli-qo‘ziquloqli-rangli yaylovda bahor mavsumida 1195,8 shartli boshni, yoz mavsumida 779,9 shartli boshni va kuz mavsumida 683,3 shartli boshni o‘tlatish mumkin.

Bu yerda hosildorlik va ozuqa birlik farqiga ko‘ra, mos ravishda amaldagi formulaga asosan hisoblanganda, taklif etilayotgan formulada hisoblanganiga nisbatan, bahorda – 780, yoz mavsumida – 987,8 kuz mavsumida – 893,6 shartli mol boshiga ko‘proq bo‘lishi aniqlandi.

Demak, yaylov almashlab boqish tizimini ilmiy asosda tashkil etishda ozuqa birlikka nisbatan chorva sig‘imini aniqlash va yaylovlar hududini tashkil etish ijobjiy samaralar beradi.

Uchinchi bobning 3.3-§.-«*Yaylov mintaqasi va pog‘onalar bo‘yicha intensiv foydalanishni takomillashtirish*» deb nomlangan bo‘lib, yaylov almashlab boqish tizimi takomillashtirildi.

O‘rganilgan tuman adir mintaqasining quyi pog‘onasida umumiy 12 506,1 ga yaylov joylashgan, yuqori adir pog‘onasida esa 48 196,3 ga yaylov yerlari mavjud. Tog‘ mintaqasining quyi pog‘onasida 6 730,0 ga, yuqori pog‘onasida esa 11 291,9 ga tabiiy yaylovlar tarqalgan. Har bir pog‘onadagi yaylovlarning mavsumlar kesimidagi ozuqa birligi hamda foydalanish davomiyligi turlicha ekanligini inobatga olib, har bir pog‘ona uchun yaylov almashlab boqish sxemasi tuzildi. Almashlab boqish (intensiv foydalanish) sxemasi va grafigi adir mintaqasining quyi pog‘onasi misolida ko‘rib chiqamiz. Adir mintaqasining quyi pog‘onasida joylashgan yaylovlar uchun 12 ta zagonga bo‘lingan 11 yil uchun mo‘ljallangan yaylov almashlab boqish dalasining loyihasi tuzildi (2-rasm).

Bitta yaylov uchastkasi adir mintaqasining quyi yaylov pog‘onasida 12 ta va yuqori pog‘onasida – 10 ta, shuningdek tog‘ mintaqasining quyi pog‘onasida 9 ta va yuqori pog‘onasida – 8 ta zagonga ajratilgan holda yer tuzish va loyihalash ishlarini amalga oshirish taklif etildi.

Foydalanish yillari	Zagonlar											
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Birinchi	red	yellow										
Ikkinchchi		red	yellow									
Uchinchi			red	yellow								
To'rtinchchi				red	yellow							
Beshinchchi					red	yellow						
Oltinchchi						red	yellow					
Yettinchchi							red	yellow				
Sakkizinchchi								red	yellow			
To'qqizinchchi									red	yellow		
O'ninchchi										red	yellow	
O'n birinchi											red	yellow


 o'tlatilmaydigan zagon       zahira (pichanzor) uchun qoldirilgan zagon  
 almashlab boqish zagonlari

2-rasm. Adir mintaqasining quyi pog'onasi yaylovlarining almashlab boqish sxemasi

Hisob-kitoblardan aniqlanishicha, umumiy hisobda o'rtacha har bir zagon 24 ga dan loyihalanishi kerak. Zagonlarning shakli to'g'ri burchakli to'rt burchak shakliga ega bo'lganda chorva tomonidan zagonlar bir tekisda o'tlanishi hamda yaylov uchastkasida chorvaning harakatlanishi uchun loyihalanadigan dala yo'llari va boshqa yaylov infratuzilmalari maqbul joylashtirilishiga erishiladi. Hududning relefidan kelib chiqib, zagonlarning eni 300 m, uzunligi 800 m qilib loyihalanishi kerak.

Olingen natijalarga asosan, quyi adir mintaqasi uchun yaylovdan almashlab boqishning yillik grafiki tuzildi (3-rasm).

Almashlab boqish maydonini 12 zagonga bo'linishi yaylovdan foydalanish intensivligiga bog'liq holda adir mintaqasining quyi pog'onasi uchun o'tlanadi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, yaylovlarning o't qoplami keyingi davr uchun tiklanishiga kamida 40 kun o'tishi talab etiladi.



 bahor       yoz       kuz

3-rasm. Adir mintaqasining quyi pog'onasi yaylovlarida almashlab boqishning yillik grafigi

3-rasmga ko'ra, birinchi yaylov sikli 63 kunda tugaydi va chorva yana birinchi zagonga o'tlash uchun qaytariladi. Keyingi navbatda har bir zagon shu tartibda o'tlanadi. Ushbu vaqt davomida o'tlangan maydonlar o'z o't qoplamini tiklaydi. Shu tariqa chorva butun mavsum davomida har bir zagonni 5 marotaba aylanib chiqadi, bunda, har bir zagon yil davomida umumiy 25-28 kun o'tlanadi.

Ohangaron tumanida tarqalgan yaylovlarning adir va tog' mintaqalari quyi va yuqori pog'onalar uchun umumiy 4 ta almashlab boqish sxemasi va 4 ta grafigi

tuzildi. Tuman bo'yicha mintaqqa va pog'onalar kesimida yaylov almashlab boqish tizimi joriy etilganda yaylov sig'imi o'zgarishi 5-jadvalda aks etgan.

5-jadval

### Ohangaron tumanida yaylov almashlab boqishda yaylov sig'imi

Yaylov mintaqasi va pog'onasi	Yaylov maydoni, ga	Yaylov infratuzilmasi maydoni (5%), ga	Almashlab boqish uchastkalari soni	1 ta almashlab boqish uchastkasining maydoni, ga	Almashlab boqish uchastkalari maydoni, ga	Almashlab boqish uchastkalaring zahira va poqlaydigan zagonlari maydoni, ga	Foydalanish davomiyligi, kun	Yaylov sikli	1 sh.b. talab etiladigan yaylov maydoni, ga	Yaylov sig'imi, sh.b.
Quyi adir	12506,1	625,3	41	288,0	11880,8	1972,2	260,0	5,0	0,5	23762
Yuqori adir	48196,3	2409,8	191	240,0	45786,5	9157,3	189,0	5,0	0,4	114466
Quyi tog'	6730,0	336,5	30	216,0	6393,5	1419,4	122,0	3,0	0,4	15984
Yuqori tog'	11291,9	564,6	56	192,0	10727,3	2681,8	76,0	2,0	0,3	35758
Tuman bo'yicha jami/o'rtacha:	78724,3	3936,2	318	234,0	74788,1	15230,7	161,8	3,8	0,4	189969

